

O'ZBEK TILIDAGI QO'SHIMCHALARNING IFODAVIY IMKONIYATLARI
TO'G'RI SID A BA'ZI MULOHAZALAR

Ma'rifat Xusanova

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Marjona Ravshanova

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi grammatik qo'shimchalarning stilistik va ekspressiv imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Bo'yoqdorlik, hissiylik, kinoya, obrazlilik kabi uslubiy xususiyatlarni yuzaga chiqarishda ayrim qo'shimchalarning ifodaviy roli izohlanadi. Maqolada bunday qo'shimchalarning badiiy matnlardagi qo'llanilishiga doir misollar tahlil qilinadi va ularning funksional boyligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qo'shimch morfemalar, bo'yoqdorlik, ekspressiv yuk, emotsionallik, stilistik funksiya, badiiy matn, ifodaviylik.

O'zbek tili agglutinativ tillar qatoriga kirgani sababli bu tilda morfemalarning, xususan, qo'shimcha morfemalarning roli juda muhim. Tilimizda qo'shimchalar nafaqat grammatik ma'no ifodalashga, balki uslubiy, semantik, hissiy rang berishga ham xizmat qiladi. O'zbek tilida ayrim grammatik ko'rinishdagi qo'shimchalar orqali so'zga ohangdorlik, obrazlilik, yumor yoki kinoya kabi ma'nolarni yuklash mumkin. Bunday qo'shimchalar tilning ifodaviy boyligini oshirib, badiiy nutqning kuchayishiga xizmat qiladi. Ular og'zaki nutq, folklor va publitsistik matnlarda, ayniqsa, badiiy adabiyotda, faol qo'llanadi. Chunki badiiy adabiyotda ijodkor mahurat bilan qo'shimchalarni o'zining badiiy maqsadiga bo'ysundiradi, tilning keng imkoniyatlarini namoyon qilishga intiladi. Masalan, "-gina" qo'shimchasi (ayiruv yuklamasi bilan shakldosh) odatda, ismlarga qo'shilib, erkalash ma'nosini beradi. Masalan,

Bozor boradi qizgina,

Do'ppi oladi **qizgina**.

Noz-u karashmalar bilan

Do'ppi kiyadi **qizgina**. (Xalq qo'shig'idan)

Quyida esa -gina qo'shimchasi boshqa ma'noni ifodalaganini ko'ramiz: "Darvozadan kirganda tomiga qora qog'oz yopilgan **ko'rimsizgina** ikki uy, bir dahlizga ko'z tushadi." (E.A'zam).

Bu gapda -gina qo'shimchasi sifatga qo'shilib, uning ma'nosini kuchaytirib, qo'shimcha ravishda oddiylik ma'nosini ham yuklaydi.

Qo'shimchalarda zid ma'nolilik nutqning ravon, ta'sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor bo'lib chiqishiga yordam beradi. Masalan: "Badavlat-davlatsiz" **Badavlat** bo'lish uchun odamning faqat puli emas, balki uning bilimi zo'r bo'lishi kerak. (O.Valijonov).

"Ko'ngilli-ko'ngilsiz". Bu dunyoda **ko'ngilli** insonlarga juda ham yashash qiyin bo'ladi, chunki ular hamma narsani ko'ngliga yaqin olishadi. Azizning Guliga nisbatan ko'ngilda qanchalik iliqlik bo'lsa ham Gulining **ko'ngilsizligi** sababli ularning munosabati uzoqqa cho'zilmadi. (O.Valijonov).

Bu o'rinda muallif ikki personaj holatini aniq tasvirlash uchun zid ma'noli so'zlardan foydalangan. Natijada nutqning ravon, ta'sirchanligi ta'minlangan.

Tilimizda yana bir guruh qo'shimchalar mavjudki, ular taqqoslash, o'xshatish, qiyoslash vazifasini bajaradi. Bular: "-cha", "-dek", "-sifat" kabi qo'shimchalardir. "Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan tolga osmonga **tillaqoshdek** ingichka oy suzib chiqardi." (O'. Hoshimov).

Ushbu jumladan -dek qo'shimchasi o'xshatish-qiyoslash ma'nosi ifodalamoqda.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, xalqona ifoda vositalari yordamida yaratilgan obrazlarda bu kabi qo'shimchalarning rolini yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, "O'sha, o'zicha aytgan javobini eshitib, ichimdan kuldim" degan jumlada ravish yasovchi -cha qo'shimchasi mazax, kinoya, istehzo ma'nosini ifodalagan.

Ta'kidlash lozimki, bunday stilistik yuklama beruvchi qo'shimchalar grammatikani estetikaga yaqinlashtiradi. Ya'ni bu qo'shimchalar yordamida grammatik birliklar nafaqat grammatik funktsiya, balki hissiy-estetik yuk ham olib yuradi. Bu esa o'z navbatida o'zbek tilining obrazlilik imkoniyatlarini boyitadi.

Umuman olganda, o'zbek tilida grammatik qo'shimchalar yordamida ifoda kuchi sezilarli darajada ortadi. Bunday qo'shimchalar xalq og'zaki ijodi, maqollar, dostonlar, zamonaviy badiiy asarlarda jonli va tabiiy tarzda qo'llaniladi.

Ular turli uslubiy nuqtayi nazardan til boyligini ko'rsatadi va xalq tafakkuridagi ohangni, jozibani ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Ko'k eshik. <https://kutubxonasi1.rssing.com/> (murojaat sanasi: 09.04.2025)
2. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. — T.: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Mamajonova D. O'zbek tilining stilistikasi. — Toshkent: Fan, 2010.
4. Valijonov O. Hissiylik va bo'yoqdorlik vositalari. — Farg'ona, 2015.
5. Ismatullaeva D. O'zbek tilining morfologik tizimi. — Samarqand, 2018.